resurslardan oqilona foydalanishga xizmat qilishi ta'kidlanadi. Umumiy olganda, O.R. Fayziyevning ilmiy ishlari sug'urta sektorida institutsional va investitsion omillarning o'zaro uyg'un rivojlanishi moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatib beradi.

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda esa, sug'urta sektorining moliyaviy barqarorligi asosan institutsional muhit va investitsion faoliyatning o'zaro ta'siri orqali izohlanadi. Jumladan, Cummins va Weiss [6] sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyati va kapital yetariligi moliyaviy barqarorlikning asosiy determinantlari ekanligini ilmiy asoslab bergan. Mualliflar sug'urta bozorida institutsional tartibga solish kuchaygan sari investitsion xavflar kamayishini ta'kidlaydilar.

Swiss Re kompaniyasining Sigma hisobotlarida [7] sug'urta sektorida investitsion portfel tarkibi va institutsional barqarorlik o'rtasida kuchli bog'liqlik mavjudligi qayd etilgan. Hisobotlarga ko'ra, kapitallashgan va institutsional jihatdan barqaror sug'urta bozorlari investitsion faoliyatni asosan past riskli va yuqori likvid aktivlarga yo'naltiradi, bu esa moliyaviy barqarorlikni mustahkamlaydi.

Shuningdek, Xalqaro sug'urta nazoratchilari assotsiatsiyasi (IAIS) tomonidan tayyorlangan tadqiqotlarda [8] sug'urta sektorining moliyaviy barqarorligi institutsional talablar, kapital standartlari va investitsion siyosatning uyg'unlashuvi orqali ta'minlanishi ilmiy jihatdan asoslangan. Ushbu yondashuv sug'urta bozorida institutsional va investitsion omillarning qo'shma ta'sirini baholash zarurligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, sug'urta tashkilotlarining investitsion faoliyati, risklarni boshqarish va kapitallashuv masalalari alohida-alohida yetarli darajada yoritilgan. Biroq, institutsional va investitsion omillarning moliyaviy barqarorlikka qo'shma ta'siri masalasi, ayniqsa O'zbekiston sug'urta sektori misolida, yetarli darajada kompleks tahlil qilinmagan. Shu bois, ushbu tadqiqot aynan mavjud ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, institutsional va investitsion omillarning o'zaro uyg'unligi moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ilmiy jihatdan asoslashga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tahlil va umumlashtirishning ilmiy usullaridan foydalanildi. Xususan, dinamik tahlil, qiyosiy tahlil va tarkibiy tahlil usullari qo'llanildi. Institutsional omillarni baholashda sug'urta tashkilotlari soni, ustav kapitali, agentlar va brokerlar instituti hamda moliyaviy kafolat mexanizmlariga oid ko'rsatkichlardan foydalanildi. Investitsion omillarni tahlil qilishda esa sug'urta tashkilotlarining jami investitsiyalari, depozitlar, qimmatli qog'ozlar, zaymlar va boshqa aktivlar tarkibi o'rganildi.

Tadqiqot ma'lumotlari rasmiy statistik manbalar, sug'urta sektorining ochiq hisobotlari va jadval ko'rinishida taqdim etilgan ma'lumotlarga asoslandi. Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekiston sug'urta sektori, tadqiqot predmeti sifatida esa institutsional va investitsion omillarning moliyaviy barqarorlikka ta'siri olindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston sug'urta sektorining moliyaviy barqarorligi uning institutsional tuzilmasi, bozor ishtirokchilari tarkibi va infratuzilmaviy elementlarining rivojlanish darajasi bilan bevosita bog'liq hisoblanadi. Shu bois, sug'urta bozorida amalga oshirilayotgan institutsional o'zgarishlarni tahlil qilish moliyaviy barqarorlikka ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash imkonini beradi. Ayniqsa, sug'urta tashkilotlari soni, ularning kapitallashuv darajasi, vositachilik institutlari hamda barqarorlikni ta'minlovchi maxsus mexanizmlardagi dinamik o'zgarishlar kompleks tahlilni talab qiladi.

So'nggi yillarda sug'urta sektorini tartibga solish va isloh qilish jarayonlari natijasida bozorda konsolidatsiya tendensiyalari kuchaygani kuzatilmoqda. Bu holat, bir tomondan, moliyaviy jihatdan barqaror va kapitali yetarli bo'lgan sug'urta tashkilotlarini shakllantirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, bozor infratuzilmasida muayyan nomutanosibliklarni ham yuzaga keltirmoqda. Xususan, sug'urta agentlari va hayot sug'urtasi segmentida ishtirokchilar sonining qisqarishi moliyaviy barqarorlikning ayrim institutsional asoslari yetarli darajada mustahkam emasligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, sug'urta tashkilotlarining umumiy ustav kapitali hajmining o'sishi va sug'urta brokerlari hamda to'lovlarni kafolatlash jamg'armasi a'zolari sonining ortishi bozorda institutsional barqarorlikni kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligini aks ettiradi. Aktuariylar institutidagi barqaror holat esa risklarni baholash tizimida muayyan institutsional barqarorlik saqlanib qolayotganini anglatadi.

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston sug'urta sektorining 2020–2024-yillar davomidagi institutsional tarkibi va moliyaviy barqarorligida yuz bergan o'zgarishlarni tahlil qilish maqsadida asosiy ko'rsatkichlar dinamikasi qiyosiy tahlil qilindi. Quyida keltirilgan 1-jadvalda sug'urta tashkilotlari soni, ularning kapitallashuv darajasi, bozor infratuzilmasining asosiy elementlari hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlovchi institutlar kesimidagi o'zgarishlar umumlashtirilgan holda aks ettirilgan.

1-jadval. O'zbekiston sug'urta sektorining tarkibiy o'zgarishlari va moliyaviy barqarorligi tahlili¹

Ko'rsatkichlar	YILLAR					2024-yilda 2020-yilga nisbatan o'zgarishi (+/-)
	2020	2021	2022	2023	2024	
Sug'urta tashkilotlari soni	40	42	41	38	33	-7
<i>shu jumladan hayot sug'urtasi bo'yicha</i>	8	8	8	7	5	-1
Sug'urta tashkilotlarining umumiy ustav kapitali (mln. so'mda)	1439187	1545784	1884111	2298572	2963695	2420359
Sug'urta brokerlari soni	5	5	7	8	11	6
Aktuariylar soni	5	5	5	5	5	0
Sug'urta agentlari soni	8900	9365	9155	4736	4804	-2832
<i>shu jumladan yuridik shaxslar</i>	2634	2774	2626	1711	1704	-412
To'lovlarni kafolatlash jamg'armasi a'zolari bo'lgan sug'urta tashkilotlarining soni	19	21	25	26	25	9

Yuqoridagi 1-jadval ma'lumotlaridan ham ko'rinib turibdiki, 2020–2024-yillar davomida O'zbekiston sug'urta sektorida institutsional tuzilmaning sifat jihatdan o'zgarib borganini hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan konsolidatsiya jarayonlari izchil kuchayganini ko'rsatadi hamda sug'urta bozorida institutsional muhit va moliyaviy barqarorlik o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni kompleks baholash imkonini beradi.

Avvalo, sug'urta tashkilotlari sonining 2020-yildagi 40 tadan 2024-yilga kelib 33 tagacha qisqarishi bozorda tartibga solish talablarining qat'iylashgani va kapital yetarililigiga qo'yilayotgan me'yorlar oshirilgani bilan izohlanadi. Bu holat sug'urta bozorida miqdoriy o'sishdan ko'ra institutsional jihatdan barqaror, moliyaviy jihatdan kapitali yetarli va risklarni qoplash qobiliyati yuqori bo'lgan ishtirokchilarni shakllantirishga ustuvor ahamiyat berilganini anglatadi. Mazkur tendensiya sug'urta sektorining moliyaviy barqarorligini qisqa muddatda kuchaytirsada, raqobat muhiti va bozor qamrovi nuqtayi nazaridan muayyan cheklavlarni yuzaga keltirishi mumkin.

Shu bilan birga, hayot sug'urtasi segmentida ishtirok etuvchi tashkilotlar sonining deyarli o'smasdan, aksincha, qisqargani institutsional islohotlar ushbu segmentga to'liq ta'sir ko'rsatmaganini ko'rsatadi. Hayot sug'urtasi uzoq muddatli investitsion resurslarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etgani holda, uning institutsional zaif rivojlanishi sug'urta sektorining investitsion salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qilmoqda.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, mazkur 1-jadvalda sug'urta tashkilotlarining umumiy ustav kapitali hajmining 2020–2024-yillar davomida qariyb ikki baravardan ziyod o'sishi moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi institutsional omil sifatida namoyon bo'layotganligini ko'rishimiz mumkin. Kapitallashuv darajasining oshishi sug'urta tashkilotlarining to'lov qobiliyatini mustahkamlab, risklarni o'z mablag'lari hisobidan qoplash imkoniyatlarini kengaytiradi. Biroq kapitalning yuqori darajada konsentratsiyalashuvi bozorda kichik va o'rta ishtirokchilarning chiqib ketishiga olib kelib, institutsional muvozanatga salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimolini ham inkor etib bo'lmaydi.

Infratuzilmaviy ko'rsatkichlar tahlilida qarama-qarshi tendensiyalar kuzatiladi. Sug'urta brokerlari sonining izchil o'sishi bozorda professional vositachilik instituti rivojlanayotganini va korporativ mijozlar segmentida sug'urta xizmatlariga bo'lgan talab oshib borayotganini ko'rsatadi. Aktuariylar sonining o'zgarmasdan qolishi esa risklarni baholash va tariflarni hisoblashda institutsional salohiyat cheklanganligini anglatadi, bu esa uzoq muddatda moliyaviy barqarorlikka tahdid sifatida namoyon bo'lishi mumkin.

Eng salbiy tendensiya sug'urta agentlari sonining keskin qisqarishida kuzatiladi. Aynan agentlar tarmog'i sug'urta xizmatlarining aholi va kichik biznes subyektlariga yetib borishini ta'minlovchi asosiy institut hisoblanadi. Agentlar sonining, ayniqsa yuridik shaxs bo'lgan agentlar ulushining kamayishi sug'urta xizmatlarining hududiy qamrovi qisqarayotganini va bozorning institutsional inklyuzivligi pasayayotganini ko'rsatadi. Bu holat sug'urta sektorining moliyaviy barqarorligi nominal jihatdan oshgan bo'lsa-da, uning iqtisodiy barqarorligi va keng qamrovli rivojlanishi uchun muammolar mavjudligini anglatadi.

To'lovlarni kafolatlash jamg'armasi a'zolari bo'lgan sug'urta tashkilotlari sonining ortishi institutsional himoya mexanizmlari kuchayib borayotganini ko'rsatadi. Bu holat sug'urta bozorida ishonchni oshirish va tizimli risklarni cheklash nuqtayi nazaridan ijobiy baholanadi. Biroq ushbu mexanizmning samaradorligi sug'urta

1 O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligining yillik hisobotlari asosida mualliflar ishlanmasi



tashkilotlarining real moliyaviy holati va aktivlar sifatini hisobga olgan holda amalga oshirilmasa, moliyaviy barqarorlikka qo'shgan hissasi cheklangan bo'lib qolishi mumkin.

Umuman olganda, yuqorida 1-jadval ma'lumotlari tahlili O'zbekiston sug'urta sektorida moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan institutsional islohotlar izchil amalga oshirilayotganini, biroq infratuzilmaviy rivojlanish va bozor inklyuzivligi nuqtayi nazaridan muvozanat to'liq ta'minlanmaganini ko'rsatadi. Bu esa institutsional barqarorlikning real iqtisodiy natijalar bilan qanday uyg'unlashayotganini investitsion faoliyat tahlili orqali aniqlash zarurligini taqozo etadi.

Yuqoridagi institutsional tahlil sug'urta sektorining moliyaviy barqarorligi uchun umumiy institutsional asos shakllanganini ko'rsatgan bo'lsa-da, ushbu barqarorlikning amalga qay darajada ta'minlanayotgani sug'urta tashkilotlarining investitsion faoliyati orqali namoyon bo'ladi. Chunki kapitallashuv darajasi, bozor konsolidatsiyasi va infratuzilmaviy cheklovlar, avvalo, investitsiya portfeli tarkibi, aktivlarni joylashtirish ustuvorliklari hamda riskka bo'lgan munosabatda aks etadi. Shu sababli, sug'urta tashkilotlarining 2020–2024-yillar davomidagi investitsion faoliyatini tahlil qilish institutsional va investitsion omillarning moliyaviy barqarorlikka qo'shma ta'sirini chuqurroq ochib berish imkonini beradi. Quyidagi 2-jadvalda esa, sug'urta tashkilotlarining investitsiya portfeli tarkibi va uning dinamikasi aks ettirilgan.

2-jadval. Sug'urtalovchilarining investitsion faoliyati, mln. so'mda²

Ko'rsatkichlar nomi	YILLAR					2024-yilda 2020 yilga nisbatan o'zgarishi	
	2020	2021	2022	2023	2024	+/- hisobida	% hisobida
Jami investitsiyalar, shu jumladan:	3382685	3746676	4751745	6149938	6542569	3159884	93.4
Depozitlar (omonatlar)	1818925	2208573	2896636	4037369	4583762	2764837	152.0
Qimmatli qog'ozlar	958552	1095976	1287917	1357492	1303756	345204	36.0
Zaymlar	42054	47449	60776	46864	95400	53346	126.9
Ko'chmas mulk	285320	247351	358944	539498	452745	167425	58.7
Tashkilotlar ustav fondidagi ishtiroki	272143	142203	118221	134728	98480	-173663	-63.8
Boshqa investitsiyalar	5691	5122	29252	33988	8425	2734	48.1

Yuqoridagi 2-jadval ma'lumotlaridan ham ko'rinib turibdiki, 2020–2024-yillar davomida O'zbekiston sug'urta tashkilotlarining investitsion faoliyati sezilarli darajada faollashganini hamda aktivlarni joylashtirishda ehtiyotkor, barqarorlikka yo'naltirilgan strategiya ustuvor bo'lganini ko'rsatadi hamda investitsion omillarning sug'urta sektorining moliyaviy barqarorligidagi hal qiluvchi rolini kompleks baholash imkonini beradi.

Avvalo, jami investitsiyalar hajmining 2020-yildagi 3,38 trln so'mdan 2024-yilda 6,54 trln so'mgacha o'sishi (93,4 %) sug'urta tashkilotlarining moliyaviy resurs bazasi kengayganini va investitsion faoliyat iqtisodiy o'sish sur'atlaridan yuqori dinamikada rivojlanganini ko'rsatadi. Bu holat sug'urta sektorining moliyaviy barqarorligi nominal jihatdan mustahkamlanayotganini anglatadi hamda institutsional islohotlar orqali shakllangan kapitallashuvning investitsiya faoliyatiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatganini tasdiqlaydi.

Investitsiya portfeli tarkibida depozitlar ulushining mutlaq ustunlik qilishi sug'urta tashkilotlarining riskka nisbatan konservativ yondashuvini namoyon etadi. Depozitlar hajmining 152 foizga o'sishi sug'urta kompaniyalarining yuqori likvidli va past riskli aktivlarga ustuvor ahamiyat berganini ko'rsatadi. Bu holat, ayniqsa, sug'urta majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish, to'lov qobiliyatini saqlab qolish va qisqa muddatli likvidlikni ta'minlash nuqtayi nazaridan ijobiy baholanadi. Biroq depozitlarga yuqori darajada qaramlik investitsiya daromadligini cheklashi mumkin bo'lib, uzoq muddatda investitsion samaradorlikning pasayishiga olib kelishi ehtimolini ham keltirib chiqaradi.

Qimmatli qog'ozlar segmentidagi nisbatan past o'sish (36 %) sug'urta tashkilotlarining kapital bozorlaridagi volatillikka ehtiyotkor munosabatda ekanini ko'rsatadi. Ushbu segmentdagi o'sishning cheklanganligi investitsiya portfelin diversifikatsiya qilish imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmayotganini anglatadi. Shu bilan birga, qimmatli qog'ozlar ulushining saqlanib qolishi sug'urta tashkilotlarining bozor instrumentlaridan butunlay voz kechmaganini, balki risk va daromad o'rtasidagi muvozanatni saqlashga intilayotganini ko'rsatadi.

Zaymlar segmentida 126,9 foizlik o'sish yuqori dinamikani namoyon etsa-da, ushbu o'sish past bazadan boshlangani bilan izohlanadi. Zaymlar portfelda hali ham nisbatan kichik ulushga ega bo'lib, ular sug'urta

2 O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligining yillik hisobotlari asosida muallif ishlanmasi



tashkilotlari uchun yuqori riskli, biroq yuqori daromadli instrument sifatida namoyon bo'ladi. Bu holat sug'urta tashkilotlarining investitsiya portfelida ehtiyotkor diversifikatsiya elementlari mavjudligini ko'rsatadi.

Ko'chmas mulk investitsiyalarining 58,7 foizga o'sishi sug'urta tashkilotlarining uzoq muddatli va nisbatan barqaror daromad manbalariga qiziqishi ortib borayotganini ko'rsatadi. Ko'chmas mulk aktivlari inflyatsiya xavflarini qisman kompensatsiya qilish va investitsiya portfelini muvozanatlash vositasi sifatida xizmat qiladi. Biroq mazkur aktivlarning likvidligi past ekanini hisobga olsak, ularning ulushini keskin oshirish moliyaviy barqarorlikka qisqa muddatda salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Tashkilotlar ustav fondlaridagi ishtirok hajmining 63,8 foizga kamayishi sug'urta tashkilotlarining yuqori riskli kapital investitsiyalaridan ongli ravishda cheklanayotganini ko'rsatadi. Bu tendensiya investitsiya siyosatining ehtiyotkorlashganini, risklarni minimallashtirish va likvid aktivlarga ustuvorlik berilayotganini anglatadi. Mazkur holat yuqoridagi 1-jadvalda qayd etilgan institutsional konsolidatsiya va kapital talablarining kuchayishi bilan mantiqan uyg'un hisoblanadi.

Boshqa investitsiyalar segmentining jami investitsiya portfelidagi ulushi kichik bo'lishiga qaramasdan, uning mavjudligi investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish va risklarni tarqatish nuqtayi nazaridan ahamiyatli hisoblanadi. Bu segment sug'urta tashkilotlarining investitsion faoliyatida ma'lum darajada eksperimental va moslashuvchan yondashuv mavjudligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, mazkur 2-jadval ma'lumotlari O'zbekiston sug'urta tashkilotlarining investitsion faoliyati moliyaviy barqarorlikni saqlashga qaratilgan ehtiyotkor, konservativ strategiya asosida shakllanayotganini ko'rsatadi. Investitsiya portfelida likvid va past riskli aktivlar ustuvor bo'lgani holda, diversifikatsiya imkoniyatlaridan cheklangan darajada foydalanilayotgani moliyaviy barqarorlikning nominal o'sishi bilan birga investitsion samaradorlikni oshirish uchun qo'shimcha institutsional va strategik choralar talab etilishini anglatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqotda 2020–2024-yillar davomida O'zbekiston sug'urta sektorining institutsional tarkibi va sug'urta tashkilotlarining investitsion faoliyati kompleks tahlil qilinib, institutsional va investitsion omillarning moliyaviy barqarorlikka qo'shma ta'siri baholandi. 1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar sug'urta bozorida institutsional konsolidatsiya jarayonlari kuchayganini va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan tartibga solish chora-tadbirlari izchil amalga oshirilganini ko'rsatdi. Ayniqsa, sug'urta tashkilotlari sonining qisqarishi va umumiy ustav kapitali hajmining keskin o'sishi sug'urta sektorining moliyaviy jihatdan barqaror, kapitali yetarli ishtirokchilar asosida shakllanayotganini tasdiqladi.

Biroq institutsional barqarorlikka erishish jarayonida bozor infratuzilmasida muayyan nomutanosibliklar saqlanib qolmoqda. Xususan, sug'urta agentlari sonining, ayniqsa yuridik shaxs bo'lgan agentlar ulushining kamayishi sug'urta xizmatlarining hududiy qamrovi va ommaviyligini cheklab, sug'urta sektorining keng iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda institutsional to'siq sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu holat institutsional islohotlar natijasida erishilgan moliyaviy barqarorlikning uzoq muddatli barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

2-jadval ma'lumotlari esa sug'urta tashkilotlarining investitsion faoliyati moliyaviy barqarorlikni saqlashga qaratilgan ehtiyotkor va konservativ strategiya asosida shakllanayotganini ko'rsatdi. Jami investitsiyalar hajmining qariyb ikki barobarga oshishi sug'urta sektorining moliyaviy resurs bazasi kengayganini tasdiqlagan bo'lsa-da, investitsiya portfelida depozitlarning ustunligi investitsion daromadlilikni cheklayotgan omil sifatida baholanishi mumkin. Shu bilan birga, qimmatli qog'ozlar va ko'chmas mulkka yo'naltirilgan investitsiyalar portfel diversifikatsiyasini ta'minlagan, ammo kapital bozorlaridan foydalanish imkoniyatlari to'liq ishga solinmagan.

1- va 2-jadvallar natijalarini qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, institutsional konsolidatsiya va kapitallashuv darajasining oshishi investitsion faoliyatning hajman o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Biroq infratuzilmaviy cheklovlar va bozor inklyuzivligining pasayishi investitsiya portfelini shakllantirishda ehtiyotkorlikni kuchaytirib, investitsion samaradorlikning cheklanishiga olib kelmoqda. Demak, institutsional barqarorlik va investitsion o'sish o'rtasida to'liq muvozanatga erishilmagan.

Yuqoridagi xulosalar asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

birinchidan, sug'urta sektorining institutsional barqarorligini uzoq muddatli ta'minlash maqsadida sug'urta agentlari institutini rivojlantirish, ularning hududiy qamrovini kengaytirish va professional salohiyatini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur;

ikkinchidan, sug'urta tashkilotlarining investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish maqsadida kapital bozorlari instrumentlaridan foydalanishni kengaytirish, ayniqsa uzoq muddatli va barqaror daromad keltiruvchi qimmatli qog'ozlar ulushini bosqichma-bosqich oshirish maqsadga muvofiq;

uchinchidan, investitsion qarorlarni qabul qilishda institutsional barqarorlik ko'rsatkichlarini hisobga oluvchi kompleks yondashuvni joriy etish, ya'ni kapitallashuv darajasi, infratuzilmaviy rivojlanish va risk profilini o'zaro bog'liq holda baholash tavsiya etiladi;



to'rtinchidan, to'lovlarni kafolatlash jamg'armasi mexanizmlarini investitsion faoliyat bilan uyg'unlashtirish orqali moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda tizimli risklarni pasaytirish imkoniyatlarini kengaytirish zarur.

Umuman olganda, institutsional va investitsion omillarning uyg'un rivojlanishi O'zbekiston sug'urta sektorining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqot natijalari sug'urta bozorini tartibga solish va sug'urta tashkilotlarining investitsion siyosatini takomillashtirishda ilmiy-amaliy asos sifatida xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Xalikulova G.T. Sug'urta tashkilotining optimal investisiya portfelini yaratish algoritmi. / https://cdn.uz.uz/2024/01/12/09/43/URexlZ4qsWlZglE5N2FMomorYzKhPZix.pdf?utm_source=chatgpt.com
2. Sattorov Sh.M. Sug'urta tashkilotlari risklarini baholashning zamonaviy usullari. / Scientific Journal of "International Finance & Accounting" Issue 4, August 2023. ISSN: 2181-1016.
3. Муминова А.У. (2025). Проблемы перестрахования и низкой капитализации страховых компаний: опыт Узбекистана. Insurance Market of Uzbekistan, 2(3), 54–56. https://doi.org/10.55439/INS/vol2_iss3/303
4. Nosirov J.T. Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash amaliyotini takomillashtirish. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali. 3/2023, may-iyun (No 00065) 11(3), 21–29.
5. Fayziyev O.R. Sug'urta bozorini raqamlashtirishda xorij tajribasi / "Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti, buxgalteriya hisobi va auditni rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalari" mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami – Samarqand, 2023. – B. 204-208.
6. Cummins J.D., Weiss M.A. Systemic risk and the U.S. insurance sector // Journal of Risk and Insurance. – 2014. – Vol. 81, No. 3. – P. 489–528. – URL: <https://doi.org/10.1111/j.1539-6975.2012.01508.x>
7. Swiss Re Institute. World insurance: navigating a challenging macro environment // Sigma. – Zurich: Swiss Re, 2023. – No. 4. – 42 p. – URL: <https://www.swissre.com/institute/research/sigma-research.html>
8. International Association of Insurance Supervisors. Insurance Core Principles. – Basel: IAIS, 2022. – 250 p. – URL: <https://www.iaisweb.org/page/supervisory-material/insurance-core-principles>
9. Fayziyev O.R., Muminov S.M. Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy investisiyalari va riskni boshqarish / "Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, tahlil, auditorlik faoliyati va moliya-kredit mexanizmini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish" mavzusidagi Respublika ilmiy amaliy anjumani materiallari to'plami. / Mualliflar jamoasi. –T.: "Alfraganus university", 2025. - 360-365 b.
10. Fayziyev O.R. Sug'urta bozorida investitsion faoliyatni boshqarishning zamonaviy yondashuvlari / «Muhandislik va iqtisodiyot». – Toshkent, 2025. - № 12. – B. 1275-1278
11. O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligining yillik hisobotlari.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
